Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

YO‘NALMA HARAKAT FE’LLARINING KONTEKSTUAL TARJIMASI: EKVIVALENTLIK VA TRANSFORMATSIYA MUAMMOLARI

https://doi.org/10.5281/zenodo.17557513

Nashirova Dilnoza Bo’riyevna
Qarshi davlat texnika universiteti
dilnozanashirova19@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining kontekstual tarjimasi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekvivalentlikning semantik, sintaktik va pragmatik darajalari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalar - grammatik o‘zgarishlar, so‘z turkumi almashinuvi va kontekstual moslashuv holatlari ilmiy asosda yoritilgan.*
KALIT SO‘ZLAR: *yo‘nalma harakat fe’llari, kontekstual tarjima, ekvivalentlik, transformatsiya, pragmatik moslashuv.*

КОНТЕКСТУАЛЬНЫЙ ПЕРЕВОД ГЛАГОЛОВ НАПРАВЛЕННОГО ДВИЖЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ И ТРАНСФОРМАЦИИ

АННОТАЦИЯ. *В статье рассматриваются особенности контекстуального перевода глаголов направленного движения в английском и узбекском языках. Анализируются уровни эквивалентности — семантический, синтаксический и прагматический, а также трансформации, возникающие в процессе перевода: грамматические изменения, замена части речи и контекстуальная адаптация.*
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *глаголы направленного движения, контекстуальный перевод, эквивалентность, трансформация, прагматическая адаптация.*

CONTEXTUAL TRANSLATION OF VERBS OF DIRECTED MOTION: PROBLEMS OF EQUIVALENCE AND TRANSFORMATION

ABSTRACT *This article examines the contextual translation of verbs of directed motion in English and Uzbek languages. The study explores different levels of equivalence — semantic, syntactic, and pragmatic — as well as various transformations occurring during translation, including grammatical changes, part-of-speech shifts, and contextual adaptations.*
KEYWORDS: *verbs of motion, contextual translation, equivalence, transformation, pragmatic adaptation.*

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

KIRISH

Globallashuv sharoitida tillararo muloqotning kengayishi tarjima faoliyatining ijtimoiy va ilmiy ahamiyatini keskin oshirmoqda. Bugungi kunda tarjima nafaqat lingvistik, balki kognitiv, pragmatik va madaniyatlararo jarayon sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, til tizimlaridagi semantik farqlarni to‘g‘ri talqin qilish, ayniqsa yo‘nalma harakat fe’llari kabi ma’no jihatdan ko‘p qatlamli birliklarni adekvat tarjima qilish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ingliz va o‘zbek tillari turli tipologik tizimlarga mansub bo‘lib, harakatni ifodalashda o‘ziga xos semantik va grammatik mexanizmlarga ega. Ingliz tilida yo‘nalish ko‘pincha go, come, move, run, enter, leave kabi mustaqil fe’llar va predloglar orqali ifodalansa, o‘zbek tilida bu ma’no ko‘pincha fe’l negiziga qo‘shiluvchi -ga, -dan, -da, -dan chiq-, kir-, bor-, kel- kabi morfologik vositalar bilan ifodalanadi. Shu sababli tarjimada nafaqat grammatik ekvivalentlik, balki kontekstual va pragmatik moslikni ta’minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yo‘nalma harakat fe’llarining tarjimasi jarayonida ko‘pincha ekvivalentlikning turli darajalari (semantik, sintaktik, pragmatik) o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurati yuzaga keladi. Masalan, He went out iborasi o‘zbek tilida “U chiqdi” tarzida bevosita tarjima qilinishi mumkin, biroq kontekstda “U tashqariga yo‘l oldi”, “U chiqib ketdi” yoki “U tashqariga shoshildi” kabi variantlar semantik jihatdan to‘g‘riroq bo‘lishi mumkin. Bu holat tarjimada transformatsion jarayonlar — ya’ni morfologik o‘zgarish, so‘z turkumi almashinuvi, semantik kengaytirish va kontekstual moslashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, harakat fe’llarining tarjimasida kognitiv omillar ham muhim o‘rin tutadi. N. Talmy (2000) ta’kidlaganidek, turli tillarda harakat hodisasi turlicha konseptual asosda ifodalanadi: ingliz tili “path” (yo‘l) konseptiga, o‘zbek tili esa “action-result” (harakat va natija) konseptiga tayanadi. Shu bois tarjimada to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik ekvivalent tanlash yetarli emas — tarjimon matnning semantik va madaniy kontekstini ham hisobga olishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yo‘nalma harakat fe’llarining tarjimasi, xususan ularning kontekstual ma’nosi va ekvivalentlik muammolari masalasi tarjimashunoslik, kognitiv tilshunoslik va semantik tipologiya yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida o‘rganilmoqda. Bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar harakat fe’llarining semantik struktura, kognitiv konsept, va madaniy konnotatsiya jihatlariga alohida e’tibor qaratadi. Avvalo, tarjima nazariyasining klassik asoschilari - E. Nida (1964) va P. Newmark (1988) ekvivalentlik muammosini tarjimaning markaziy masalasi sifatida baholaydilar. Nida “dinamik ekvivalentlik” nazariyasida

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

tarjima jarayonida so‘zma-so‘z moslikdan ko‘ra ta’sir ekvivalentligini saqlash muhimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv yo‘nalma harakat fe’llarining tarjimasida ayniqsa dolzarb, chunki bunday fe’llar ko‘pincha fazoviy emas, balki metaforik yoki pragmatik ma’noda ishlatiladi (He went too far → U haddan oshdi). O‘zbek tilshunosligi doirasida ham yo‘nalma harakat fe’llarining semantik xususiyatlari va ularning tarjima muammolari o‘rganilgan. Qo‘chqorov A. (2019) o‘zining “Tilshunoslik va tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari” asarida o‘zbek tili fe’llarining morfologik yo‘nalish va mazmuniy nuqtai nazaridan harakat trayektoriyasini ifodalashini tahlil qiladi. Sodiqova M. (2021) esa frazeologik birliklar tahlilida yo‘nalma harakat fe’llarining madaniy-semantik jihatiga urg‘u beradi.Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yo‘nalma harakat fe’llarining tarjimasi faqat grammatik moslik bilan cheklanmaydi. U semantik transformatsiya, kognitiv model va madaniy ekvivalentlikni o‘z ichiga olgan kompleks jarayon bo‘lib, uni izchil o‘rganish zamonaviy tarjimashunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi.Mazkur tadqiqotda yo‘nalma harakat fe’llarining ingliz va o‘zbek tillaridagi kontekstual tarjimasi, ularning semantik ekvivalentligi va transformatsiya jarayonlari qiyosiy-tipologik, korpus tahlili, hamda kognitiv-semantik yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik bazasi zamonaviy tarjimashunoslik, kognitiv tilshunoslik, hamda semantik tahlil nazariyalariga tayanadi. Tadqiqotning nazariy poydevorini E. Nida (1964)ning dinamik ekvivalentlik nazariyasi, P. Newmark (1988)ning semantik va kommunikativ tarjima modeli, V. N. Komissarov (1990)ning ekvivalentlikning ko‘p darajali tasnifi, hamda L. Talmy (2000) va G. Lakoff (1980)ning kognitiv semantika va konseptual metafora nazariyalari tashkil etadi.

Ushbu nazariy manbalar asosida harakat fe’llarining ma’nosi, yo‘nalishi, semantik o‘zgarishi va tarjimadagi transformatsiyasi kontekstual talqin asosida tahlil qilindi. Tadqiqot ob’ekti — ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llari (go, come, move, enter, leave, turn va ularning o‘zbekcha ekvivalentlari bor-, kel-, chiq-, kir-, ket-, qayt-) hamda ularning tarjimadagi kontekstual ishlanmalari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa ushbu fe’llarning semantik ekvivalentligi, kontekstual o‘zgaruvchanligi va tarjima jarayonida yuz beruvchi transformatsion hodisalaridir. Tahlil jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Qiyosiy-tarjimonlik metodi - harakat fe’llarining ikki tildagi semantik va grammatik o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash uchun;

Kontekstual-semantik tahlil - fe’llarning matndagi real ma’nosini va ularning tarjima variantlarini aniqlash uchun;

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

Tadqiqot davomida har bir kontekst uchun: Fe’lning asosiy ma’nosi (literal meaning), Kontekstual (metaforik yoki pragmatik) ma’nosi, Tarjimadagi ekvivalentlik turi (formal, dinamik, pragmatik), Amalga oshgan transformatsiya turi (transpozitsiya, modulatsiya, ekvivalent almashtirish) belgilanib, tizimli jadval asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Yo‘nalma harakat fe’llarining kontekstual tarjimasi jarayonida ekvivalentlik va transformatsiya muammolari, ayniqsa ingliz va o‘zbek tillari strukturaviy hamda semantik tafovutlari sababli murakkab masala sanaladi. Harakat yo‘nalishini ifodalovchi fe’llar (go, come, arrive, leave, return, enter, exit, approach, reach, cross va boshqalar) ingliz tilida ko‘pincha fazoviy yo‘nalish bilan bog‘liq predikativ birliklar sifatida namoyon bo‘ladi, o‘zbek tilida esa bu ma’nolar sintetik yoki sintagmatik shakllarda - ya’ni qo‘shimchalar (-ga, -dan, -da, -tomon) yoki yordamchi so‘zlar orqali ifodalanadi. Shu bois tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikni ta’minlash har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik moslik orqali amalga oshmaydi. Masalan, ingliz tilidagi: “He went out of the room quickly.” - bu gapdagi went out harakati nafaqat “chiqmoq” ma’nosini, balki “tezlik, shoshilinchlik” konnotatsiyasini ham beradi. O‘zbek tilidagi ekvivalenti “U xonadan shoshilib chiqib ketdi” tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda “out” predlogi orqali ifodalangan yo‘nalish, tarjimada “-dan chiqib ketdi” morfologik shaklida aks ettirilgan. Shu tarzda inglizcha harakatni ifodalovchi ikki komponentli struktura (fe’l + predlog) o‘zbek tilida bitta murakkab fe’l orqali ifoda topadi.

Boshqa misol: “She came back after two years.” - bu jumlada came back “qaytmoq” fe’li bilan semantik jihatdan teng bo‘lsa-da, ingliz tilida “come”ning harakat yo‘nalishini markazga (gapiruvchiga qarab) ifodalashi, “back” esa harakatning teskari yo‘nalishini bildiradi. O‘zbekcha ekvivalenti “U ikki yildan so‘ng qaytib keldi” tarzida bo‘lib, bunda ikki komponentli ingliz birligi bitta leksik birlik — “qaytmoq” orqali berilgan. Bu hol tarjimada strukturaviy transformatsiyaning eng ko‘p uchraydigan holatidir . Shuningdek, tarjima jarayonida semantik kengayish va torayish holatlari ham kuzatiladi. Masalan: “He ran into trouble.” so‘zma-so‘z tarjimada “U muammoga yugurib kirdi” degan noaniq shaklga ega bo‘ladi, biroq kontekstual ma’nosi “U muammoga duch keldi” tarzida ifodalanadi. Bu yerda “run into” iborasi fazoviy yo‘nalishni emas, balki metaforik harakat yo‘nalishini bildiradi. Shu sababli, bu turdagi fe’llar tarjimasida semantik interpretatsiya va konseptual ekvivalentlik asosiy rol o‘ynaydi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz yo‘nalma harakat fe’llarining o‘zbek tiliga tarjimasida quyidagi asosiy transformatsion strategiyalar qo‘llaniladi: --Morfologik transformatsiya — predlog orqali ifodalangan yo‘nalish o‘zbek tilida qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi: go

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

into → kirmoq; come out of → chiqmoq. Semantik soddalashtirish — ko‘p komponentli iboralar bir fe’l orqali beriladi: get back → qaytmoq; move forward → oldinga yurmoq. Metaforik adaptatsiya — idiomatik yoki kontekstual iboralar semantik talqin asosida tarjima qilinadi: run into trouble → muammoga duch kelmoq. Kontekstual transformatsiya — harakat yo‘nalishi bevosita ifodalanmasdan, maqsad yoki natija orqali beriladi: go for success → muvaffaqiyatga intilmoq. Demak, yo‘nalma harakat fe’llarining tarjimasida formal emas, balki funksional ekvivalentlik muhim rol o‘ynaydi. Shu jarayonda tarjimon semantik moslik, pragmatik moslashuv va kontekstual transformatsiya usullarini uyg‘unlashtirgan holda, asl matnning ma’no maydonini to‘liq yetkazishga intilishi zarur.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz yo‘nalma harakat fe’llarining o‘zbek tiliga tarjimasida quyidagi asosiy natijalar kuzatiladi:

To‘liq ekvivalentlik - asosan literal yo‘nalish bildiruvchi birliklarda uchraydi (come in – kirmoq, go out – chiqmoq).

Qisman ekvivalentlik - harakat yo‘nalishi bilan birga hissiy yoki metaforik ma’no yuklangan holatlarda (run into trouble – muammoga duch kelmoq). Transformatsion ekvivalentlik - grammatik vositalar farqi sababli yuzaga keladi (get back – qaytmoq, go through – boshdan kechirmoq).

Mazkur tahlillar tarjimada morfologik, leksik va semantik transformatsiyalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi zarurligini ko‘rsatadi. Tarjimon nafaqat fe’lning lug‘aviy ma’nosini, balki uning konseptual mazmunini ham anglab, kontekstga mos shaklda ifodalashi lozim. Shu bilan birga, ingliz tilidagi phrasal verblarning frazeologik xususiyatlari ham har doim so‘zma-so‘z tarjima qilinmasligi kerak. Chunki “go down”, “come up”, “get over” kabi birliklar ko‘pincha idiomatik xarakterga ega bo‘lib, ularning tarjimasi semantik ekvivalent emas, kontekstual moslama asosida berilishi kerak. Tarjima nazariyasida yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik va semantik xususiyatlarini alohida o‘rganishga bag‘ishlangan modellar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Tarjimonlar tayyorlov jarayonida kontekstual interpretatsiya va transformatsion tarjima usullarini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganish zarur. Inglizcha phrasal verblarning o‘zbek tilidagi frazeologik ekvivalentlari korpusini yaratish, tarjima jarayonida ularni avtomatik tanlash imkonini beruvchi elektron leksik baza ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, yo‘nalma harakat fe’llarining kontekstual tarjimasi nafaqat grammatik tafovutlarni, balki madaniy, pragmatik va konseptual tafakkurni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, bunday fe’llarni tarjima qilishda tillararo semantik o‘zgarishlar, madaniy konnotatsiyalar va kontekstual moslik chuqur tahlil qilinishi, tarjimonning lingvistik sezgirligi va ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). London: Routledge.
2. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. Oxford University Press.
3. Komissarov, V. N. (1990). Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva: Vysshaya Shkola.
4. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: Brill.
5. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. Amsterdam: John Benjamins.
6. Kade, O. (1981). Problemy perevoda i perevodcheskaya teoriya. Moskva: Nauka.
7. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
8. Karasik, V. I. (2002). Yazykovoy krug: lichnost’, kontsepty, diskurs. Volgograd: Peremena.
9. G‘afurov, S., & Rashidova, D. (2019). Tarjima jarayonida ekvivalentlik nazariyalari va ularning amaliy ahamiyati. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
10. Abdullayeva, M. (2021). “O‘zbek va ingliz tillarida harakat fe’llarining semantik strukturalari.” Filologiya masalalari, 3(12), 44–52.
11. Turaeva, Z. Y. (2018). “Til tizimidagi harakat yo‘nalishini ifodalovchi birliklarning tarjimaviy xususiyatlari.” Til va tarjima jurnali, 6(2), 27–35.
12. Larson, M. L. (1998). Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence (2nd ed.). Lanham: University Press of America.